

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/10.12.2019.I.16.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH
TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI**

Qo'lyozma huquqida
UDK:336.1:334.722.8(575.1)

URAZBAYEVA ILMIRA KONISBAYEVNA

**AKSIYADORLIK JAMIYATLARIDA MOLIYAVIY
KONTROLLINGNI SHAKLLANTIRISHNING NAZARIY VA
USLUBIY JIHATLARI**

08.00.07 – «Moliya, pul muomalasi va kredit»

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
DISSERTATSIYASI**

Ilmiy rahbar: Kurbanov Khayrilla Abdurasulovich,
iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Toshkent–2025

MUNDARIJA

KIRISH.....	3
I BOB. AKSIYADORLIK JAMIYATLARIDA KORPORATIV HISOBNING NAZARIY JIHA TLARI.....	11
1.1-§. “Moliyaviy kontrolling” tushunchasining mazmuni va kelib chiqish tarixi.....	11
1.2-§. Aksiyadorlik jamiyatlarida moliyaviy kontrollingning turlari va funksiyalari.....	21
1.3-§. Aksiyadorlik jamiyatlarida moliyaviy kontrollingni amalga oshirish bosqichlari.....	31
I bob bo‘yicha xulosalar.....	49
II BOB. AKSIYADORLIK JAMIYATLARI RAQOBATBAR-DOSHLIGINI OSHIRISHDA MOLIVAVIY KONTROLLING TIZIMIDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGI.....	50
2.1-§. Aksiyadorlik jamiyatlarida moliyaviy kontrolling tizimini joriy etish orqali uning raqobatbardoshligini oshirish tahlili.....	50
2.2-§. Moliyaviy kontrollingning aksiyadorlik jamiyatlari barqarorligiga ta’siri tahlili.....	67
2.3-§. Aksiyadorlik jamiyatlari strategiyalarini moliyaviy kontrolling asosida amalga oshirish tahlili.....	78
II bob bo‘yicha xulosalar	86
III BOB. AKSIYADORLIK JAMIYATLARIDA MOLIVAVIY XAVFSIZLIKNI TA’MINLASHDA MOLIVAVIY KONTROLLINGDAN FOYDALANISH.....	87
3.1-§. AJlarda moliyaviy xavfsizligini ta’minlashda moliyaviy kontrollingning vositalarini joriy etish istiqbollari.....	87
3.2-§. Raqamli iqtisodiyot sharoitida AJlardagi moliyaviy kontrolling tizimini rivojlantirish jihatlari.....	91
III bob bo‘yicha xulosalar.....	101
XULOSA.....	102
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI.....	106
ILOVA.....	120

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda global moliyaviy beqarorlikning kuchayishi sharoitida davlatning moliyaviy siyosatini muvaffaqiyatli amalga oshirishning asosiy yo‘nalishlaridan biri sifatida aksiyadorlik jamiyatlarini moliyalashtirish manbalarini shakllantirish, taqsimlash va foydalanish jarayonlarining samaradorligiga erishish, ular moliyaviy strategiyasi ko‘rsatkichlarining maqsadli qiymatlariga rioya qilish va moliyaviy xatarlarni minimallashtirishning ahamiyati ortib bormoqda. Inqiroz sharoitida moliyaviy kontrollingning amaliy ahamiyati oshib boradi, bu tegishli vositalarni, shu jumladan aksiyadorlik jamiyatlarining moliyaviy nazorati sohasidagi inqirozga qarshi vositalarni ishlab chiqishni talab qiladi. “Turli tarixiy bosqichlarda, XV asrning o‘rtalaridan boshlab, dunyoda moliyaviy kontrollingning turli ilmiy maktablari shakllanib rivojlandi. Eng mashhur maktablar: Amerika va Germaniya maktablari. AQSH korxonalarini boshqarish asosida boshqaruv hisoboti va axborot yordami yotadi, Germaniya korxonalarini boshqarishning asosiy tayanchi esa, buxgalteriya: moliyaviy va ishlab chiqarish buxgalteriyasi hisoblanadi”¹. Moliyaviy kontrollingni joriy etish, asosan, tashqi subyektlar bilan ishlash doirasini kengaytiradi va ular o‘rtasidagi shaffoflik, ishonchlilikning ortishiga olib keladi. Moliyaviy kontrollingning joriy etilishi natijasida, korxonana moliyaviy mablag‘larining shakllanishi to‘g‘ri amalga oshirilib, ularni jalb qilish imkoniyatlarining oshishiga ham sabab bo‘ladi. Bu esa, o‘z navbatida, aksiyadorlik jamiyatining investitsion jozibadorligining oshishiga olib keladi.

Jahonda global raqobatning kuchayishi sharoitida aksiyadorlik jamiyatlarida moliyaviy kontrollingni shakllantirish muammolariga

¹ Пушкарева Н.А., Сорока Е.В. Зарубежный опыт развития систем контроллинга: история и современность // https://donnasa.ru/publish_house/journals/esgh/2018-4/07_pushkarova_soroka.pdf

yoʻnaltirilgan ilmiy tadqiqotlar kengayib bormoqda. Aksiyadorlik jamiyatlari moliyaviy barqarorligini taʼminlash uchun daromad va xarajatlarni rejalashtirish usullarini takomillashtirish, moliyaviy hisobotning xalqaro moliyaviy hisobot standartlariga (IFRS) muvofiqligi orqali shaffofligini taʼminlash, hisobot tahlili va samaradorlik koʻrsatkichlarini joriy etish, aksiyadorlik jamiyatlari uchun moliyaviy xavflarni aniqlash, baholash va minimallashtirish mexanizmlarini ishlab chiqish, korporativ boshqaruvni kuchaytirish uchun moliyaviy maʼlumotlarning xolisligi va aniqligini taʼminlash, investitsiya loyihalarini moliyaviy tahlil qilish va xatarlarni baholash bu boradagi tadqiqotlarning ustuvor yoʻnalishlaridan hisoblanadi.

Yangi Oʻzbekistonda iqtisodiy islohotlarni olib borish jarayonida aksiyadorlik jamiyatlari faoliyatini rivojlantirishga alohida eʼtibor qaratilmoqda. Aksiyadorlik jamiyatlarining moliyaviy barqarorligini oshirish orqali moliyaviy kontrollingni joriy etish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Jumladan, Oʻzbekistonda faoliyat koʻrsatayotgan aksiyadorlik jamiyatlarida strategik moliyaviy kontrollingning faolligini oshirish boʻyicha yoʻriqnoma yoki koʻrsatmalar ishlab chiqish, uni amalga oshirishning umumiy va maxsus usullarini tanlash, moliyaviy kontrolling jarayonida ishlatiladigan taxminiy nazorat koeffitsiyentlarini toʻgʻri tanlash, aksiyadorlik jamiyatlarida moliyaviy koʻrsatkichlarning mezonlariga erishish ustidan yetarli darajada nazorat oʻrnatish, moliyaviy kontrolling usullarining uslubiy muvofiqligi taʼminlash orqali moliyaviy qarorlarni qabul qilishning obʼyektivligiga erishish bu boradagi muhim vazifalardan hisoblanadi. Ushbu vazifalarni samarali amalga oshirilishi aksiyadorlik jamiyatlarida moliyaviy kontrolling tizimini shakllantirish jihatlari va uni joriy etish imkoniyatlarini oʻrganish, tegishli uslubiy hujjatlarni ishlab chiqish va ularni aksiyadorlik jamiyatlari amaliyotiga

joriy etishga qaratilgan ilmiy tadqiqot ishlarining dolzarbligini namoyon etadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 27-avgustdagi PF-6300-son “Davlat moliyaviy nazorati tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni, 2022-yil 14-fevraldagi PQ-128-son “O‘zbekiston Respublikasi Davlat byudjeti xarajatlarining samaradorligini yanada oshirish va davlat moliyaviy nazorati organlari faoliyatini takomillashtirish to‘g‘risida”, 2017 yil 21-avgustdagi PQ-3231-son “Ta’lim va tibbiyot muassasalarini moliyalashtirish mexanizmini hamda davlat moliyaviy nazorati tizimini yanada takomillashtirish to‘g‘risida”gi qarorlari, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 13-fevraldagi 62-son “O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Davlat moliyaviy nazorati inspeksiyasi hamda vazirliklar va idoralarning ichki audit xizmatlari xodimlari malakasini sertifikatlash tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”, 2022-yil 5-avgustdagi 431-son “O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi Davlat moliyaviy nazorati inspeksiyasi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2022-yil 10 iyundagi 326-son “Fuqarolar ishtirokidagi audit o‘tkaziladigan obyektni aniqlash va davlat moliyaviy nazorati organlari faoliyati samaradorligini jamoatchilik tomonidan baholab borish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”, 2022-yil 24-martdagi 129-son “Moliya vazirligi huzurida Davlat moliyaviy nazorati inspeksiyasi faoliyatini tashkil etish hamda byudjet tashkilotlarida moliyaviy nazoratni takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorlari hamda soha faoliyatiga oid boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Dissertatsiya tadqiqoti respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. «Demokratik va huquqiy jamiyatni ma’naviy-axloqiy va madaniy rivojlantirish, innovtasion iqtisodiyotni shakllantirish» ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Aksiyadorlik jamiyatlarida “moliyaviy kontrolling” tushunchasining mazmun-mohiyatini o‘rganish bir qator xorijiy olimlar tomonidan amalga oshirilgan. Jumladan, V.V.Manuylenko, A.V.Vorobyev, L.N.Rodionova, E.N.Petrova, R.V.Kolesov, A.A.Lisenko, Ye.A Titova, A.V.Yeroxina, Ye.V.Peredereyeva va boshqalarning aksiyadorlik jamiyatlarida moliyaviy kontrollingni joriy etishga oid tadqiqotlari, ular mablag‘larini maqsadli sarflanishini ta’minlashda moliyaviy kontrollingning faoliyat, tahliliy ilmiy yondashuvlari shakllantirilgan². O‘zbekistonlik olimlardan: J.R.Zaynalov, S.S.Aliyeva, B.E.Toshmuradova, S.Elmirzayev, N.A.Tursunova, R.X.Karlibayeva, I.M.Alimardonov, A.M.Kadirov, Z.O.Axrorov, F.A.Mirbabayev, O.N.Xamdamov, A.G.Ibragimov, Z.R.Madaminov, M.E.Raxmataliyev kabi iqtisodchi olimlarning ilmiy-

² Мануйленко, В. В. Система финансового контроллинга в корпорациях: содержание, виды, формы и инструментарий реализации : монография / В. В. Мануйленко, М. А. Шебзухова ; под науч. ред. В. В. Мануйленко. - Москва : Финансы и статистика, 2022. - 326 с. - ISBN 978-5-00184-075-6. - Текст : электронный. - URL: <https://znanium.com/catalog/product/1913983> (дата обращения: 17.06.2024). – Режим доступа: по подписке. Воробьев А.В., Самойлова И.П. Понятие финансового контроллинга в современной финансовой науке // Управление экономическими системами: электронный научный журнал. 2014. № 2 (62). -С. 51. Л.Н. Родионова и др. Евразийский Союз Ученых (ЕСУ) # VIII, 2014 | Экономические науки.69 стр. Петрова, Э. Н. Финансовый контроллинг / Э. Н. Петрова. — Текст : непосредственный // Молодой ученый. — 2020. — № 48 (338). — С. 538-541. — URL: <https://moluch.ru/archive/338/75725/> (дата обращения: 17.06.2024) Колесов Р.В Система государственного финансового контроля РФ: проблемы и перспективы: Монография. - Ярославль: ЯФ МФЮА, 2013. - 100 с А.А. Лысенко Развитие комплексно-системного подхода к реализации финансового контроллинга в государственном секторе. Финансовый менеджмент № 5-2 (2023):=, 116стр. Титова Е.А. Развитие учетно-контрольного обеспечения финансового контроллинга в вузах: дис. ... канд. экон. наук. Воронеж, 2022. 183 с. Ерохина А.В. Создание эффективной системы финансового контроллинга в обществах с ограниченной ответственностью: дис. ... канд. экон. наук. -Санкт-Петербург, 2013. 199 с. Передереева Е.В. Трансформация инструментария корпоративного финансового контроллинга в условиях цифровизации бизнес-процессов: автореф. дис. ... канд. экон. наук.-Ставрополь, 2023.

amaliy tadqiqotlarida aksiyadorlik jamiyatlarida moliyaviy munosabatlarni samarali boshqarish va moliyaviy kontrollingni rivojlantirish istiqbollari aniqlash, shuningdek, ularning moliyaviy siyosatini samarali olib borish orqali aksiyadorlik jamiyatlarini moliyaviy barqarorlashtirish masalalari aks ettirilgan³.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi.

Mazkur dissertatsiya tadqiqoti Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining «Iqtisodiyotni modernizatsiya qilish sharoitida moliya, bank va hisob tizimini muvofiqlashtirishning ilmiy asoslari» mavzusi doirasida bajarilgan. **Tadqiqotning maqsadi** O'zbekiston Respublikasida faoliyat ko'rsatayotgan aksiyadorlik jamiyatlarida moliyaviy kontrolling tizimini shakllantirish bo'yicha ilmiy taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

«moliyaviy kontrolling» tushunchasining mazmuni va kelib chiqish tarixini o'rganish;

aksiyadorlik jamiyatlarida moliyaviy kontrollingni turlari va funksiyalarini tadqiq etish;

³Ж.Р. Зайналов, С.С.Алиева Малый бизнес и частное предпринимательство: состояние и развитие в быстро меняющихся условиях.// "Иқтисодиёт ва инновацион технологиялар" илмий электрон журнали. № 6, апрель, 2013 йил. 1 бет.; Toshmurodova B., Elmurazayev S., Tursunova N. Moliyaviy menejment. Darslik. -T.: "Iqtisod-moliya" -325 (2017).; Karlibayeva R. Bozor iqtisodiyoti sharoitida xo'jalik yurituvchi subyektlar moliyaviy menejmenti. ARN. 2017 y. 35-bet.; Алимарданов И.М.. Акциядорлик жамиятларида молиявий менежментни ташкил этиш механизмлари.//Journal of Fundamental Studies, (2023). 1(4), 18–22. Retrieved from <https://imfaktor.com/index.php/jofs/article/view/325>; Кадиров А.М., Саноат корхоналари иқтисодий барқарорлигини таъминлашнинг хорижий давлатлар компаниялари таърибаси.//Иқтисод ва молия. 2022, 9(157), 15 бет.; Ахроров З.О Корхоналарда молиявий режалаштиришни ташкил этиш Journal of Economics Finance and Innovation <http://sbtsue.efin.uz/index.php/imij/index>. 2022 ISSN:2181- 3299 Volume-II Issue 1. 30 бет.; Мирбабаев Ф.А. Корхоналар бошқарув тизимини шакллантириш хусусиятлари ва бошқарувнинг бозор шароитидаги муаммолари. // "Иқтисодиёт ва инновацион технологиялар" илмий электрон журнали. № 2, март-апрель, 2015.1-б.; Хамдамов О.Н. Aksiyadorlik jamiyatlarida moliyaviy menejment tizimi metodologik asoslarini takomillashtirish. Fan doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati. BFA: "Iqtisod-Moliya" -2023. – 76 бет.; A.G.Ibragimov, Z.R.Madaminova, M.E.Raxmatliyev. Moliyaviy menejment. - T.: "Barkamol fayz media", 2016, 232 бет.

aksiyadorlik jamiyatlarida moliyaviy kontrollingning shakllantirish bosqichlarini ochib berish;

“moliyaviy kontrolling” tushunchasi mazmunini o‘rganish, uning shakllari va turlarini tasniflash yuzasidan muallifning qarashlarini ishlab chiqish;

aksiyadorlik jamiyatlarida moliyaviy kontrollingni tashkil etish mexanizmlarini o‘rganish va ilmiy tavsiyalar berish;

aksiyadorlik jamiyatlarida moliyaviy kontrollingni amalga oshirishning tashkiliy jihatlariga aniqlik kiritish va ularning ahamiyatini ilmiy asoslash;

aksiyadorlik jamiyatlarida moliyaviy kontrolling tizimini joriy etish bosqichlarini taklif etish;

aksiyadorlik jamiyatlarida moliyaviy kontrolling tizimini shakllantirishning amaldagi holatiga aniqlik kiritish va ularni jadallashtirish bo‘yicha ilmiy tavsiyalar berish;

aksiyadorlik jamiyatlari moliyaviy barqarorligini ta’minlashda moliyaviy kontrolling joriy etish bo‘yicha xorijiy tajribalarni o‘rganish;

raqamli iqtisodiyot sharoitida aksiyadorlik jamiyatlaridagi moliyaviy kontrolling tizimini rivojlantirish masalalari bo‘yicha turli xil vositalardan foydalanishni asoslash.

Tadqiqotning obyekti bo‘lib mamlakatimizda faoliyat olib borayotgan aksiyadorlik jamiyatlari faoliyati hisoblanadi.

Tadqiqotning predmeti bo‘lib aksiyadorlik jamiyatlari faoliyatiga ijobiy ta’sir qilish maqsadida moliyaviy kontrollingni shakllantirishda yuzaga keladigan iqtisodiy munosabatlar tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqotda tahlil va sintez, taqqoslash, ekspert baholash, iqtisodiy-matematik, vertikal tahlil, matematik modellashtirish usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

uslubiy yondashuvga ko‘ra “moliyaviy kontrolling” tushunchasining iqtisodiy mazmuni aksiyadorlik jamiyatining moliyaviy ma’lumotlarini axborot va tahlil qilish asosida uning bozor qiymatini oshirishga va moliyaviy qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan munosabatlar majmuiga iqtisodiy funksiyani amalga oshirish bilan bog‘liq bo‘lgan va yuqori lavozimli xodimlar tomonidan to‘g‘ri strategik va tezkor qarorlar qabul qilishga qaratilgan korxonalarda alohida faoliyat sifatida yondashish nuqtayi nazaridan takomillashtirilgan;

«Nukus vino zavodi» aksiyadorlik jamiyatining ijobiy moliyaviy holatini ta’minlovchi moliyaviy kontrolling tizimini shakllantirishga ta’sir etuvchi omillar tarkibini: rentabellik ($R = 0,26$), to‘lovga qobiliyatlilik ($TQ = 0,23$), o‘z va qarz mablag‘lari nisbati barqarorligi ($MB = 0,28$), aksiyadorlik jamiyatining investitsion jozibadorligini oshirish ($IJ = 0,23$) o‘rtasidagi maqbul nisbatni ta’minlash orqali takomillashtirish taklifi asoslangan;

aksiyadorlik jamiyatlarida moliyaviy kontrolling texnologiyalaridan foydalangan holda aksiyadorlik jamiyatlarining moliyaviy siyosati hamda strategik va taktik qarorlar qabul qilish imkoniyatlarining moliyaviy-iqtisodiy ko‘rsatkichlarini rejalashtirish va baholashda nazoratning yangi usullarini joriy etish orqali kengaytirish taklifi asoslangan;

aksiyadorlik jamiyatlariga moliyaviy kontrollingni joriy etish asosida moliyaviy barqarorlik ko‘rsatkichlarining optimal intervaldan og‘ishi va undagi risk ko‘rsatkichlarining tahlili asosida 2026-yilga qadar prognoz ko‘rsatkichlari ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

aksiyadorlik jamiyatlarida moliyaviy kontrolling shakllari, ularning turlari va joriy etish usullarini o‘rganish bo‘yicha nazariy va amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan;

moliyaviy kontrolling ta'rifi bo'yicha muallifning nazariy yondashuvi tushunchalari o'rtasidagi iyerarxik munosabatlari ishlab chiqilgan;

aksiyadorlik jamiyatlariga moliyaviy kontrollingni joriy etishda samaradorlikka erishish jarayonlari asoslangan, bu asosiy va maxsus prinsiplarga asoslangan tizimni tashkil etuvchi elementlarning o'zaro bog'liqligi va izchilligini aks ettiruvchi yo'llari taklif etilgan:

aksiyadorlik jamiyatlarida moliyaviy kontrolling tizimini joriy qilish orqali strategik yo'nalishlarini mustahkamlash, turli xil moliyaviy xatarlardan himoya qilish, risklarni bartaraf etish maqsadida bashorat qilish, jamiyat faoliyatini mustaqil nazorat qilish va unda zamonaviy vositalardan foydalanish tavsiya etilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot natijalarining ishonchliligi nazariy-uslubiy xulosa va qoidalarining xorijiy va mahalliy yetakchi olimlari tomonidan yaratilgan ilmiy manbalarga muvofiqligi, O'zbekiston Respublikasi me'yoriy hujjatlari, rasmiy qonun va me'yoriy hujjatlardan olinganligi, tadqiqotchining izlanishlari asosida ishlab chiqilgan aksiyadorlik jamiyatlari faoliyatini tartibga solishning moliyaviy kontrollingni shakllantirish jarayonlari, amaliy tavsiyalari vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlanganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati unda o'rganilgan nazariy-uslubiy nuqtayi nazardan yoritilgan qoida va xulosalardan aksiyadorlik jamiyatlari faoliyatini tartibga solishning moliyaviy kontrolling tizimini shakllantirish va rivojlantirishga qaratilgan ilmiy tadqiqotning nazariy va uslubiy jihatlarini takomillashtirishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati dissertatsiyada qayd etilgan taklif va tavsiyalardan aksiyadorlik jamiyatlarida moliyaviy

kontrollindan foydalanish, ularning moliyaviy barqarorligini ta'minlash, moliyaviy kontrolling vositalari ko'magida investitsion jozibadorlikni oshirish va aksiyadorlik jamiyati samaradorligini ta'minlash jarayonlarini tartibga solishni ta'minlashga qaratilgan chora-tadbirlar majmuini ishlab chiqishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Aksiyadorlik jamiyatlari faoliyatini tartibga solishda moliyaviy kontrollingni shakllantirish bo'yicha ishlab chiqilgan ilmiy taklif va tavsiyalar asosida:

uslubiy yondashuvga ko'ra "moliyaviy kontrolling" tushunchasining iqtisodiy mazmunini aksiyadorlik jamiyatining moliyaviy ma'lumotlarini axborot va tahlil qilish asosida uning bozor qiymatini oshirishga va moliyaviy qo'llab-quvvatlashga qaratilgan munosabatlar majmuiga iqtisodiy funksiyani amalga oshirish bilan bog'liq bo'lgan va yuqori lavozimli xodimlar tomonidan to'g'ri strategik va tezkor qarorlar qabul qilishga qaratilgan korxonalarda alohida faoliyat sifatida yondashish nuqtayi nazaridan takomillashtirishga oid nazariy va uslubiy materiallardan oliy o'quv yurtlarining 60410500 – "Moliya va moliyaviy texnologiyalar" bakalavriat yo'nalishi, 70410501 – "Moliya" magistratura mutaxassisligi talabalari uchun tavsiya etilgan "Korporativ moliya" nomli o'quv qo'llanmani tayyorlashda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2019-yil 4-oktyabrdagi 892-sonli buyrug'i). Natijada, ushbu qo'llanma, mazkur ilmiy taklifning amaliyotga joriy etilishi bilan talabalarda aksiyadorlik jamiyatlari faoliyati, uning operatsiyalari, o'z mablag'lari salmog'ini oshirib borishga rag'batlantiruvchi moliyaviy kontrolling tizimini yo'lga qo'yish orqali uning faoliyatini tartibga solish bo'yicha nazariy bilimlarni kengaytirish imkoni yaratilgan;

«Nukus vino zavodi» aksiyadorlik jamiyatining ijobiy moliyaviy holatini ta'minlovchi moliyaviy kontrolling tizimini shakllantirishga ta'sir

etuvchi omillar tarkibini: rentabellik ($R = 0,26$), to'lovga qobiliyatlilik ($TQ = 0,23$), o'z va qarz mablag'lari nisbati barqarorligi ($MB = 0,28$), aksiyadorlik jamiyatining investitsion jozibadorligini oshirish ($IJ = 0,23$) o'rtasidagi maqbul nisbatni ta'minlash orqali takomillashtirish taklifidan "Nukus vino zavodi" aksiyadorlik jamiyatida moliyaviy kontrolling faoliyatini tartibga solish va iqtisodiy samaradorligini oshirishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Davlat aktivlarini boshqarish agentligining 2025-yil 18-fevralidagi 49-01-11-sonli ma'lumotnomasi). Mazkur ilmiy taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida "Nukus vino zavodi" AJ ishlab chiqarish faoliyatiga kreditlar va investitsiyalarni jalb etishda moliyaviy kontrollingni qo'llash imkoni yaratilgan;

aksiyadorlik jamiyatlarida moliyaviy kontrolling texnologiyalaridan foydalangan holda aksiyadorlik jamiyatlarining moliyaviy siyosati hamda strategik va taktik qarorlar qabul qilish imkoniyatlarining moliyaviy-iqtisodiy ko'rsatkichlarini rejalashtirish va baholashda nazoratning yangi usullarini joriy etish orqali kengaytirish taklifi iqtisodiyotning dinamik rivojlanishi sharoitida aksiyadorlik jamiyatlari faoliyatini tartibga solishda moliyaviy kontrolling tizimi asosida korxona faoliyatini rivojlantirish dasturini ishlab chiqishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Davlat aktivlarini boshqarish agentligining 2025-yil 18-fevralidagi 49-01-11-sonli ma'lumotnomasi). Mazkur ilmiy taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida, "Nukus vino zavodi" AJ faoliyatini tartibga solish va unga moliyaviy kontrolling tizimini joriy etish asosida uzoq muddatli istiqbol ko'rsatkichlarini aniqlashtirish hamda rivojlanishning asosiy parametrlariga muvofiqlashtirish imkoni yaratilgan;

aksiyadorlik jamiyatlariga moliyaviy kontrollingni joriy etish asosida moliyaviy barqarorlik ko'rsatkichlarining optimal intervaldan og'ishi va undagi risk ko'rsatkichlarining tahlili asosida 2026-yilga qadar

ishlab chiqilgan prognoz ko'rsatkichlaridan "Nukus vino zavodi" AJ faoliyatini tartibga solishning moliyaviy holatini rivojlantirish dasturi"ni ishlab chiqishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Davlat aktivlarini boshqarish agentligining 2025-yil 18-fevralidagi 49-01-11-sonli ma'lumotnomasi). Mazkur ilmiy taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida, "Nukus vino zavodi" AJ moliyaviy barqarorligi uzoq muddatli istiqbol ko'rsatkichlarini aniqlashtirish va rivojlanishning asosiy parametrlariga muvofiqlashtirish imkoni yaratilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 3 ta xalqaro va 5 ta respublika ilmiy-amaliy konferensiyalarida muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Tadqiqot mavzusi bo'yicha 10 ta ilmiy ish, xususan, 5 ta maqola O'zbekiston Respublikasi Oliy Attestatsiya komissiyasi tomonidan tavsiya etilgan ilmiy jurnallarda, ulardan 3 tasi milliy va

2 tasi xorijiy jurnallarda chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 140 betni tashkil etadi.